



Yoshlar o'rtasida mamlakatimiz boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib etish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish zarur.
Shavkat MIRZIYOYEV

7-8 (75-76)-son
2019-yil, iyul-avgust

IJODIY PARVOZ

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, axborot gazetasi

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining
28 yilligi barehamizga muborak bo'lsin!



Erkin VOHIDOV,
O'zbekiston xalq shoiri

* * *

Vatan, to tanda jonim bor,
Seningdirman, seningdirman,
Tanim xok o'lsa ham sen yor,
Seningdirman, seningdirman.

Jahon kengdir, falak kengdir,
Yurak kengdir, chu sen borsan,
Seningsiz ikki dunyo tor,
Seningdirman, seningdirman.

Menga begona ellarda
Nasib gar o'lsa yuz rohat,
Chekay bag'ringda ming ozor,
Seningdirman, seningdirman.

Agar shodliklaring ozdir,
Meningdiansan, meningdiansan,
Magarkim g'amlarim bisyor,
Seningdirman, seningdirman.

Bugun bor, erta yo'q jismim,
Valek ruhim uchun mangu
Sening manguiging darkor,
Seningdirman, seningdirman.

Sening ishqing bilan yondim,
Ketar jonimda bu otash,
Seningdirman, yana takror,
Seningdirman, seningdirman.

ALISHER NAVOIY HAYOTIDA INSON RIZOLIGINING MUQADDASLIGI. NAVOIYNING KARAM VA SAXOVATDAGI BUYUKLIGI

Bu yil nafaqat Respublikamizda, balki jahonning bir qancha yurtlarida ulug' shoir va mutafakkir, davlat arbobi, shoirlar sultoni, o'zbek adabiy tilining asoschisi buyuk Alisher Navoiy tavalludining 578 yilligi keng nishonlandi. Biz ham ayni shu muqaddas sana munosabati bilan bir tarixiy voqelik, ya'ni Alisher Navoiyning qalamiga mansub bir g'azalning tug'ilish tarixiga oid maqola tayyorlab, e'tiboringizga havola qilmoqni maqsad qildik. Zero, maqola orqali ulug' Navoiyning buyukligiga, haqiqiy inson va saxovatpeshaligiga yana bir bor guvoh bo'lib, tasannolar aytamiz.

Men Navoiy hayoti va ijodi bilan bog'liq Vohid Abdullayevning bundan 51 yil muqaddam, ya'ni 1968 yilda chop etilgan "Navoiy Samarqandda" (Toshkent: G'.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968. -136 b.) monografiyani mutolaa qilish asnosida bir qiziqarli ma'lumotni uchratdim. Hozir sizlarning e'tiboringizga shu asardan parchani keltirmoqchiman (bu iqtibos kitobning 83-87-sahifalaridan olindi):

"Shoir Maqsud Shayxzoda ta'riflaganidek, – deb boshlaydi Sobir Abdulla, – g'azal mulkining sultoni Amir Alisher Navoiyning yigitlik davriga taalluqli bir kichik hikoyani aytib bermoqchiman. Buni men O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi Mirza Abdulla Boqiydan eshitganman.

Alisher Navoiy Samarqandda tahsil ko'rayotgan yillarda bir matla'ning asiri, maftuni bo'ldi:

**Ko'kragimdur subhning pirohanidin chokroq,
Kiprigim shabnam to'kilgan sabzadin namnokroq.**

Alisherni o'ziga asiru maftun etgan bayt shu bo'lib, uning sohibi bir gado edi. Samarqand bozorida kechgacha baland, shirali ovozi bilan shu baytni takrorlardi, baytni gadodan qayta-qayta eshitib, zavqlanuvchi, unga sadaqa inom qiluvchi ahli dard, ahli fazl kimsalar oz emas edi.

Navoiy gadoning yoqimli ijrosida matla'ni qayta-qayta tinglardi, yodlab olingan matla'ni yo'l-yo'lakay zamzama qilar, hujraga qaytganda ham qulog'ida shu matla' jaranglab, hatto bu matla' kechalari unga uyqu bermas edi.

"Xaridor bo'lib, shu baytingizni menga soting, desam sotarmikin?..Balki sotar,

balki sotmas!... Qani endi menga sotsa edi". Bu istak Navoiyni tinch qo'yimadi, gado orqasidan ergashib xarobasiga borishga, qo'lidan tutib, iltimos qilishga ahd qildi:

"Otaxon! Shu baytingizni menga soting! Aqcham kifoya qilmasa, to'nimni ham sotib beray. Yo'q demang!"

Navoiyning iltimosini eshitgan keksa gado qah-qah urib kulib yubordi, keyin boshini chayqab iltimosini rad qildi.

– Ko'rinishingizdan qashshoq mullavachchaga o'xshaysiz! Shundog'mi?
– Shundog'.

– Shundog' bo'lsa, baytni sotib olish niyatidan keching, tekinga oling, yodlab o'qib yura bering! Buning uchun mening tomonimdan qanday mone'lik bo'lishi mumkin?...

– Shuning uchun sotib olishim kerakki, u chog'da siz bu matla'ni kuylab, tilanishdan mahrum bo'lursiz.

Navoiydan bu da'voni eshitgan gado miyig'ida kulib, tamasxurona bosh chayqadi:

– Balki kuchingiz yetmas, balki buni shohlikka alishmasman. Zeroki, bu bayt menga otamdan meros qolgan, men uni qirq yildan beri takrorlayman, bu bilan qornimni to'yg'izaman, bola-chaqa boqaman!...

– Otangiz shoirmidilar?

– Shoir emas edilar, bog'bon edilar, bu baytni baland ovozda kuylab bog'ni parvarish qilar edilar.

– Faqat bir baytning o'zimidi yoki to'la, mukammal g'azal edi-yu, siz shu bir baytni yodda qoldirganmisiz?...

– Yo'q! Otam ham shu bir baytni takrorlar edi.

– Qaysi zotning asarlari ekanligini ham bilmaysiz?...

– Afsus, nomu taxalluslarini bilmayman. Otam ham bundan xabarsiz bo'lgan bo'lsalar kerak!...

Navoiy g'amgin, sukutga cho'mdi, gado so'zini davom ettirdi:

– Siz yod olib, o'qib yurishingiz uchun mening rizo bo'lishim kifoya qilmaydimi?
– Men sizning rizoligingizsiz ham yod olib zamzama qilib yuribman. Lekin men uchun bu kifoya emas .

Shunday qilib, Navoiyning umidi uzildi, bo'shashib hujraga qaytib keldi.

Oradan bir necha yil o'tdi. Husayn Bayqaroning taklifi bilan Navoiy Hirotda jo'nab ketdi; Sulton Husaynning saltanatida bosh vazirlik lavozimi, malikush-shuaro martabasini egalladi. Sulton Husayn Bayqaro davlat, saltanat sultoni maqomida bo'lsa, Alisher Navoiy Sharqqa "g'azal mulkining sultoni" bo'lib tanildi.

Oradan o'n yildan ko'proq o'tgandan so'ng Navoiy davlat ishlari bilan Samarqandga yo'li tushib, qadrdonlarga mehmon bo'ldi, bir suhbatda Navoiy o'zini asiru maftun qilgan o'sha bayt bilan uning sohibi – gadoni esladi. Hamsuhbatlar Navoiyga o'sha gadoning nihoyatda keksayib qolganligi, baytni o'shandaq baland, shiralik ovozda emas, bir yerda mukchayib o'tirganicha pichirlab aytib, tilanayotganidan darak berdilar. Navoiy ertasi kun gadoni kappon bo'sag'asidan topib, ziyorat qildi, so'ng o'zini tanitdi:

- Yodingizda bormi? Baytga xaridor bo'lgan edim, siz rad qilgan edingiz...
- Yodimga tushdi! Hali ham o'sha davodan qaytganingiz yo'qmi?
- Yo'q ota! Hamon o'sha g'azalning asiri, maftuniman, hamon jazman xaridorman!

Chol kuldi:

- Sotaman! Biroq sotib olishga qurbingiz yetsa koshki edi.
- Balkim qurbim yetib qolar, balkim yetmas...
- Juda keksayib qoldim, endi uni baland ovozda o'qishdan ojizman! Haq so'zini aytganda, gadolik ham me'daga tegdi. Qurbingiz yetsa, yaxshi hovli-joyga, shu hovli-joy yaqinidan bir tegirmon va bir eshakka ega qilingu, bayt sizniki bo'lsin, men o'lgunimcha haqqingizga duo qilib, qolgan umrimni tegirmonchilik bilan kechiray.

Navoiy mamnuniyat bilan xo'p dedi, cholning aytgani bo'ldi: cholga dang'illama hovli-joy, tegirmon va bir eshak sotib olib berildi. Sohibi noma'lum, uzoq yillar gado bo'lgan shoh bayt Navoiyning zarxarid mulki bo'lib qoldi va shundan keyin Navoiy unga dadil dast urib, uni mukammal g'azal holiga keltirdi:

**Ko'kragimdur subhning pirohanidin chokroq,
Kiprigim shabnam to'kilgan sabzadin namnokroq.**

**Bu ko'ngil g'amnokidin to shodmon ko'rdim seni,
Istaram har damki o'lg'ay xotirim g'amnokroq.**

**Layli andin qo'ydi Majnun kungilda rohat g'amin
Kim, yo'q erdi manzil ul vodiya andin pokroq.**

**O'yla mijgon xanjariga yopishubdur dard aning –
Kim, magar andin tinim yo'qdur vale bebokroq.**

**Lablaringdin jon olurda barcha el quldur sanga,
Jon berurda bir qulung yo'q bandadin cholokroq.**

**Odamiylik tuprog'in bersa fano yeriga charx,
Ohkim, yo'qtur kishi ahli fanodin xokroq.**

**Necha o'qlonsa Navoiy ko'ngli zaxmin chok bo'lur,
Ko'rmadik, zaxmini tikkan sori bo'lgay chokroq.**

Navoiyning boshqa nodir g'azallari qatori bu "roq" radifli g'azali ham o'z vaqtida muxlislariga yetdi, hofizlar uni kuyga solib kuyladilar, bu mashhur, o'lmas kuyning nomi ham "roq" deb ataladi, bu kuy Navoiyning g'azali bilan asrlar osha bizning davrimizga yetib keldi, uni to'y-tantanalarimizda atoqli hofizlarimiz tomonidan zavq-shavq bilan kuylanib, kishilarimizga ruhi g'izo baxsh etmoqda.

Alisher Navoiyning Sobir Abdulla tomonidan O'zbekiston Fanlar akademiyasining muhbir a'zosi Mirza Abdulla Boqiydan eshitib keltirilgan bu kichik hikoyasidagi "chokroq – namnokroq" qofiyasi bilan boshlangan g'azali va Samarqandda yozilgan, deb taxmin qilingan juda ko'p lirik manzumalari haqidagi naqlarni manbalarga solishtirib asoslash navoiyshunosligimizning muhim vazifalaridandir. Har holda shunday izlanishlarning davom etabergani yaxshi va uning navoiyshunoslik kabi katta ishga ozmi-ko'pmi foyda keltirish shubhasizdir".

Biz nima uchun bugungi ushbu ma'lumotlarni keltirishni ma'qul ko'rdik? Bu hikoyadan yana bir bor buyuk Navoiyning mardligi, insoniyligi va saxovatpeshaligiga guvoh bo'lamiz. E'tibor bering, Navoiy bu matlani hech kimdan ruxsat so'ramasdan olishi va davom ettirishi mumkin edi. Uning muallifi noma'lum, aytayotgan shaxs esa hech qanday martabaga ega bo'lmagan bir gado edi. Qolaversa, Navoiy Hirotda, gado esa Samarqandda, hech kim bu g'azalning kimga oidligi bilan Navoiydek inson bilan tortishmaydi, gado ham Samarqandda bu g'azalga da'vogarlik qilishga imkoni ham, qudrati ham yetmaydi. Lekin Navoiy bir necha ming satrdan iborat g'azallar sohibi bo'lishiga qaramasdan, bu g'azalni uni qo'shiq qilib aytayotgan insonni rozi qilib olishni maqsad qiladi. Ilk ko'rishgan vaqtida Navoiy moddiy jihatdan unchalik qudratli bo'lmagan, oradan o'n yil o'tib moddiy jihati ancha kuchli bo'lganda yana Samarqandga kelib, ikki qator she'r uchun gado aytgan shartni mamnuniyat bilan qabul qiladi. Ya'ni Samarqanddan bir qancha mablag' evaziga uy-joy – hovli, yana tegirmon va eshak-arava sotib olib, gadoni rozi qiladi, uning kelajak avlodlari uchun hayot kechirish manbaini hozirlab beradi. Bu Navoiyning haqiqiy inson, mard va saxovatpesha shaxs bo'lganligidan namuna emasmi?

O'zingiz bir mulohaza qilib ko'ring: bugun ayrimlar tomonidan o'zganing qo'shig'ini, yaratgan kuyini, asarini hech tap tortmasdan surbetlarcha o'zlashtirish tobora avj olib borayotgan bir davrda bu jihatdan ham buyuk Navoiydan o'rnak olishimiz lozimdek ko'rinadi.

Shu o'rinda muhtaram ustozim, filologiya fanlari doktori, akademik Azizxon Qayumovning 2011-yilda chop etilgan "Yoshlar tarbiyasida moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligi masalalari" nomli monografiyalarida ifodalangan o'z hayotlaridan hamda Navoiyning karam va saxovat borasidagi o'gitlaridan bir lavha keltirmoqni lozim topdik.

"Karam, saxovat – bu, imkoni bor kishilarning o'z imkoniyatidan kelib chaqib,

zoru muhtoj kishilarga marhamat qilmog'i, yordam ko'rsatmog'i, ularga madadkorlik qilmog'idir. Karam va saxovatning ziddi, ya'ni teskarisi bu — buxl, ya'ni baxillik, ochko'zlik, qizg'anish, o'z galar ehtiyojiga beparvolik, o'z mol-u dunyosini bosib yotib, ulardan hech kimga naf yetkazmaslikdir. Navoiy baxillik (buxl)ni qoralaydi, uni rad etadi.

Ayni zamonda, shoir karamli, saxiy kishilarga saxovat qoidalarini o'rgatadi. Karam va saxovat qo'lidan keladigan odam bu ishni aql-farosat bilan amalga oshirsin; saxovat va karam bilan isrofini farq qila bilsin. Agarda u ot chiqarish maqsadida, soxta shuhrat qozonishni ko'zda tutib, duru gavharlarini hovuchlab socha bersa, bu aqlli ish bo'lmaydi. Bunday behuda isrofgarchilikdan ko'ra baxillik yaxshiroqdir, deb kinoya qiladi shoir:

**Sochmoq ovuch birla guhar ot uchun,
Naqd etak birla mubohot uchun.
Aql hisobidan erur bas yiroq,
Buxl bu judungdin erur yaxshiroq.**

Ma'nosi: Ot chiqarmoqni ko'zda tutib gavharlarni hovuch-hovuch har tarafga socha bermoq, Mubohot (maqtanmoq) uchun etak to'la oqchalarni behudaga sarf etmoq aqllilikdan emas (demak, aqlsizlikdan nishona – A.Q.). Buningdek soxta qo'li ochiqlikdan baxillik yaxshiroqdir.

**Bo'ldi bu ish mast ila majnun ishi,
Mast ila majnun nega bo'lg'ay kishi!**

Ma'nosi: Bunday ishni mastlar va jinnilargina qilmoqlari mumkin. Mast ila jinnilarni esa odam deb atamoq mumkinmi? (yo'q!).

Shu munosabat bilan bir o'zim shohid bo'lgan voqeani hikoya qilib bersam. Bir mahallar mahallada bir ommaviy tadbir o'tkazildi. Yaxshi gaplar aytili. So'ng osh tortildi. Tadbirga bir ashulachi taklif qilingan ekan, u yoqimli ashulalar aytib berdi. Odamlar tarqala boshlagach, men o'sha ashulachiga minnatdorlik izhor etmoqchi bo'lib uning yaqiniga keldim va o'ltirdim. U kishi o'z ashulasini davom ettirmoqda. Odamlar tarqalib ketganlar. Ashulachining yonida bir odam o'ltiribdi. Uni tanimadim, avvallari ko'rmagan ekanman. Men minnatdorlik bildirmoq uchun so'zimni ayta olmas edim. Chunki ashulachining yonida o'ltirgan odam g'irt mast. U dam u cho'ntagidan, dam bu cho'ntagidan pullarni chiqarib, ashulachi oldiga tashlar edi. Shuning uchun ashulachi to'xtamay ashulasini davom ettirardi. Mastda pul ko'p ekan, u ayamay o'zida bor pullarni sovurmoqda edi. Shuning uchun ashulachining bo'yin tomirlari shishib chiqib, yuzi qip-qizil bo'lib ketgan bo'lsa ham ashula aytishdan to'xtamas edi. Oxiri mast yana bir qancha pulni ashulachi oldiga tashladi-da, o'zi o'rnidan turib ashulaga moslanib o'yinga tushib ketdi. (Agar bu kimsaning beso'naqay harakatlarini o'yin deb atash mumkin bo'lsa). Men tushundimki, ashulachiga mening minnatdorligim kerak emas, unga badmast isrofgarning pullari kerak. Shu sababli paytdan foydalanib o'zimni chetga tortdim.

O'shanda Navoiyning "mast ila majnun nega bo'lg'ay kishi" degan misrasi esimga tushdi. Mastlik bilan qilinayotgan "naqd etak birla mubohot" mening nafratimni qo'zg'atdi. Shunday ahmoqona qiliqlardan saqlanish lozimligini anglatish maqsadida bu noxush voqeani hikoya qilmoqdaman. Alisher Navoiy qanchalik karam va saxovatni ulug'lamasin, u shunchalar qit'iyat bilan chirkini isrofgarchiliklarni ham rad qiladi edi.

Navoiy ogohlantiradiki, och bo'lmaganlarga dasturxon yozish, yalang'och bo'lmaganlarga to'n kiygizish noo'rin va qilinmasligi kerak bo'lgan ishlardir. Bunday ishlar xuddi yuzlab yilqilari bor odamga bir ot tortiq qilish yoki quyosh nurini kuchaytiraman deb kupp-kunduz kuni yuzta sham yoqib qo'ymoq bilan barobar. Shuning singari, bu ishlar bulutning qaqrab yotgan bog', dalalar ustidan uchib o'tib, yomg'irini tog'u toshlarga yog'dirganiga o'xshab ketadi.

Shulardan ma'lum bo'ladi, inson tom ma'noda karam va saxovat egasi bo'lmog'i kerak. U hamisha o'zida borini o'z galar bilan baham ko'rishi, muhtojlarning ehtiyojini qoplamoqqa harakat qilishi lozim. Yana Navoiy uqtiradiki, chin saxovat, birinchi navbatda, hech qachon hech kimdan hech narsa kutmaslik, tama' qilmaslikdadir.

**Holi agar yaxshidurur gar taboh,
Kimsadin etmas tama'i molu joh.**

Haqiqiy saxovat egasi ahvoli xoh yaxshi, xoh yomon bo'lsin, hech qachon birovdan mol-u mulk, dunyo so'ramaydi. Agarda u dengizga yetsa, undan biror shabnam ham tilamaydi. Lekin biror kishining yarasini ko'rsa, unga marhamatini ayamaydi. Navoiyning karam va saxovat to'g'risida aytganlari lutf marhamatning nizomi deyilsa ham bo'ladi.

**Mustahiqi chun talab izhor etar,
Ulgaki maqduridur iysor etar.
O'z yerida yuz tuman, ar bir diram,
Bazl ishida teng ko'rar ahli karam.
Boqmayin o'z lutf ila ehsonig'a,
Minnatini ham qo'yar o'z jonig'a.**

Agar marhamatga munosib bir odam o'z ehtiyojini bildirib, o'ziga ko'mak kutsa, unga lozim narsani imkon boricha bag'ishlamog'ing kerak. Lekin shoir ta'kidlaydiki, o'z o'rnida shu maqsadda beriladigan yordamning qiymati va qadri bab-baravar. Xoh yuz tuman bo'lsin, xoh bir diram bo'lsin, ularning qiymati teng hisoblanadi. Bazl (in'om, ehson) qoidasi shu. Chunki eng muhimi, shu yordamga muhtoj kishiga ko'rsatilayotgan samimiy munosabat, yordamlashuv istagidir".

Ha, Navoiy hayoti va ijodini har qancha o'rgansak, uning yangi-yangi qirralari ochilaveradi. Shuning uchun ham Navoiyni har kim har kuni o'qishi, o'rganishi muhimdir.

**Ibrohim YO'LDOSHEV,
filologiya fanlari doktori, professor**

O'ZBEKISTON QADIMIY VA SEHRLI MAMLAKAT

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan o'zbek xalqining boy madaniy merosini o'rganish, saqlash, tadqiq va targ'ib qilish, ajdodlarimiz aql-zakovati, mehnati va mahorati evaziga yaratilgan osori-atiqalarni tadqiq etish, dunyoning turli burchaklarida saqlanayotgan madaniy merosimiz durdonalarini o'rganish borasida keng qamrovli ishlar bajarilmoqda.

Haqiqatdan ham, O'zbekiston Buyuk yo'llar va sivilizatsiyalar chorrahasida turgan qadimiy va sehrlil mamlakatdir. O'zbekistonda bugungi kunda 7476 ta moddiy madaniy meros ko'chmas mulk obyekti sifatida davlat muhofazasiga olingan bo'lib, shundan 4308 tasi arxeologiya, 2079 tasi arxitektura obyekti, 694 tasi monumental san'at asari, 395 tasi diqqatga sazovor joy hisoblanadi. Shu bilan birga, 2,5 millionta moddiy madaniy meros obyekti hisoblangan muzey ashyolari va kolleksiyalari saqlanmoqda. Shunisi quvonarliki, O'zbekiston Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiyani (Parij, 1972-yil 16-noyabr) ratifikatsiya qilgan. Ushbu Konvensiya doirasida esa, Ichan Qal'a, Buxoro tarixiy MARKAZI, Samarqand madaniyatlar chorrahasi kabi tarixiy manzilgohlar YUNESKOning Umumjahon merosi obyektlari ro'yxatiga kiritilgan.

Yuqoridagi olib borilayotgan xayrli ishlarning mantiqiy davomi sifatida, joriy yilning 22-27-avgust kunlari mamlakatimizning nufuzli tarixiy shaharlari Toshkent, Termiz, Buxoro, Samarqandda "O'zbekiston-buyuk yo'llar va sivilizatsiyalar chorrahasi: imperiya, din, madaniyat" mavzuidagi madaniy meros haftaligi bo'lib, unda dunyoning qirqdan ortiq mamlakatlaridan yuzlab olimlar, tadqiqotchilar, madaniyat va san'at

vakillari ishtirok etdilar. Bunday nufuzli tashkilot, xalqaro jamiyat xalqimizning boy va betakror merosini keng targ'ib etish, chuqur o'rganishda, yoshlarda vatanparvarlik, el-yurt taqdiriga daxldorlik tuyg'ularini kuchaytirish hamda xalqimizning moddiy va madaniy merosiga dunyo e'tiborini yanada kengroq jalb qilishda ahamiyati beqiyosdir. Ushbu tadbirda YUNESKO Bosh direktori Odri Azule ham tashrif buyurib, 26-avgust kuni O'zbekistonda bo'lib o'tgan moddiy va madaniy merosni saqlash bo'yicha xalqaro konferensiyada ma'ruza qildi. Shuningdek, YUNESKO rahbari mamlakatimizga birinchi tashrifi davomida "Sharq taronalari" musiqa festivalini ochib berishga ham musharraf bo'ldi. YUNESKO bosh direktori Odri Azule o'z chiqishida festival o'tayotgan Samarqand Amir Temurning buyuk davlati, Registon maydoni esa Mirzo Ulug'bek merosidan dalolat berishini, bu meros asrlar davomida olimlar, hunarmandlar, san'atkorlarni bu yerga yetaklaganini qayd etdi. Umumbashariy tarixni asrash, universal til bo'lgan musiqani rivojlantirish YUNESKO ning ma'suliyat doirasiga kirishini, tashkilot O'zbekiston bilan keng ko'lamlil hamkorlikni rivojlantirish niyatida ekanligini alohida ta'kidlab o'tdi.

Xulosa o'rmda aytish mumkinki, mamlakatimizda bunday tadbirlarning o'tkazilishi, bugungi tezkor jarayonda, jamiyatning bir tizimda rivojlanishi emas, aksincha xilma-xil madaniyatlar va sivilizatsiyalar mavjudligi, ularning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq ko'p tizimli rivojlanish g'oyasi ham davr talabidir. Zamonaviy medi amakonda madaniyatning ahamiyati beqiyos ekanligini ko'rsatdi.

Qunduzxon NISHONBOYEVA,
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik"
kafedrasi dotsenti

Biz talaba bo'ldik!

TALABALIK BAXTI

Men talaba bo'ldim! Bu baxt mening hayotga ishonchimni, ota-onam, o'qituvchilarim va vatanim oldidagi burchimni yanada ottirdi. Talabalik bu har bir abituriyentning orzusidir. O'zim xohlagan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining "Vokal ijrochiligi" ta'lim yo'nalishi hujjat topshirib talaba bo'lish, baxtiga muyassar bo'ldim. Inson chin dildan xohlansa, o'z ustida izlansa, o'qisa, sabr-toqatli bo'lsa, hammasiga erishar ekan. Bu voqea mening hayotimda katta o'zgarishlarga keng yo'l ochdi, desam mubolag'a bo'lmaydi. Bugun hayajonim cheksiz. Men o'zim qatori talaba bo'lgan tengdoshlarimni chin dildan tabriklayman.

O'g'iloy BAYCHIBAYEVA,
"Vokal ijrochiligi" ta'lim yo'nalishi talabasi

ENG KATTA YUTUQ

Har bir insonning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari bo'ladi. Bugun mening eng katta orzuyim amalga oshdi – talaba bo'ldim! O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining "Musiqali dramatik teatr aktyorligi" yo'nalishining sirtqi bo'limga qabul qilindim! San'at mening hayotim. Xudo xohlansa dunyoning katta-katta sahnalarida rol ijro etib, o'zbek san'atini keng yoyish, milliy qahramonlarimizni jahon sahnalariga olib chiqish yo'lida xizmat qilaman! Bu yo'lda, albatta, malakali va mehribon ustozlarimiz o'zlarining yuqori salohiyatlari va bilimlari ila menga ko'mak berishadi, degan umiddaman!

Nasiba BEKTO'RAYEVA,
"Musiqali teatr aktyorligi" yo'nalishi talabasi

KUTILGAN VA KUTILMAGAN BAXTI

Ochig'ini aytganda, institutga bu yil uchinchi bora hujjat topshirishim edi. Sababi yildan-yilga san'atsiz, san'at muhitisiz yasholmasligimga tobora amin bo'laverardim. Bu yilgi imtihonlar har yilgidanda hayajonli bo'ldi. Chunki abituriyent o'z natijalarini

RUHIYAT ALLASI

Kuy – ko'ngil havosi.

Necha ming yillik tarixga ega xalqimizning san'atga oshuftaligi ham asriy ham asliydir. Biror o'zbek xonadoniga kirsangiz devorida osig'liq turgan rubob yoki dutor ko'k toqida turgan quyosh kabi tabiiydir. Yoinki biror odam yo'qki hech bo'lmaganda sevimli qo'shig'ini xirgoyi qilmaydigan. Demakki, qon-qonimizga singib ketgan san'at bizning borlig'imizga, boyligimizga aylanib bo'lgan. Bugun ana shunday bebaho boyliklarimizdan biri, mumtoz merosimiz namunalaridan bo'lgan "Cho'li Iroq" kuyi xususida fikr yuritamiz. Qulog'imizga ertalabki salomday tanish bo'lib qolgan, mahzun nolalarini tinglaganda o'zni unutgan xayollar ummonga g'arq bo'lganimizda bizni beshik tebratganday tebratib, boshqaradigan bu kuyning yaralish tarixi, jarayoni nechog'lik qiziq?

Bu borada O'zbekiston Davlat konservatoriyasi "An'anaviy ijrochilik" kafedrasi o'qituvchisi, O'zbekiston xalq hofizi Mahmudjon Tojiboyevga murojaat qildik. Aytishlaricha, Zahiriddin Muhammad Bobur davridagi tarixchilarning yozma manbalarida "Cho'li Iroq" kuyiga oid ma'lumotlar va rivoyatlar keltirilgan.

Unga ko'ra, bir kun saroydagi nazm va musiqa bazmida Sohib ismli sozanda kirib keladi va tanburda bir kuy chalishni boshlaydi. A'vom o'sha payt til bilan ifodalash mushkul bo'lgan holatga tushib qoladi, o'zligini yo'qotadi. Kuy avjiga chiqqanda tanburni dastasiga bulbul kelib qo'nadi va tinglaydi. Keyin ilohiyot sababmi yoki kuyning sehrimi ushbu kuyni tinglayotgan jamiki saroy ahli hushini yo'qotadi, sozanda ham, bulbul ham. Shunda kirib holatni ko'rgan xizmatkorlar hamma hushsizlarni yuziga gulob sepib o'ziga keltirishadi. Ammo bulbul hushiga kelmaydi, o'lib qolgan bo'ladi...

O'sha sehrlil kuyni "Cho'li Iroq"ni birinchi ijrosi deya rivoyat qilingan.

Yana boshqa ma'lumotlarga ko'ra, uning nomlanishi geografik joy nomiga asoslangan. Ya'ni, Iroq mamlakatidagi cho'l – Karbalo bilan bog'liq. Aytishlaricha, ushbu Karbalo dashtida payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)

ning nabiralari imom Hasan va Imom Husanlar shahid ketgan ekanlar. Ularni xotirasiga kuy shunday nomlangan ekan.

XX asr o'rtalariga kelib yillar dovonidan oshib kelayotgan Cho'li Iroqqa bastakor Imomjon Ikromov so'z soldilar. Hazrat Navoiyning "Ey nasimiy subh ahvolim diloromimg'a ayt" matlasi bilan boshlanadigan mashhur g'azal bilan aytiladigan ashula yo'li cholg'u yo'lidan farq qiladi. Bu ashulani ilk marta Orif hoji ota Alimahsumov ijro etib radio tasmalariga muhrladilar. Keyinchalik Cho'li Iroqning bu ashula yo'li ham ommalashib, mashhur bo'lib, xalqimiz qalbiga kirib bordi. Hozirda ham sevib ijro qilinadi va tinglanadi. Ammo ashulaning yuqorida aytib o'tilgan farqi shundan iborat ediki, u qadimiy Cho'li Iroq kuyidan tempi, kayfiyati va biroz ko'tarinkiroqligi bilan farq qiladi. Asl kuy yo'li esa judayam og'ir va dardli ekani ma'lum. Balki Orif hoji otaning shunday ijrosi bastakor Imomjon Ikromovning talabi bilan, balki o'sha sobiq sho'ro tuzumining vaziyati bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Balki og'ir qilib ijro etishga zamon yo'l qo'ymagandir. Chunki u davrda mahzun ashula va kuylar, hatto maqomlarning ham shunday ijrosi ijtimoiy tuzumdan nolish deb qabul qilingan. Shuning uchun mana shunday o'zgarishlarga duch kelingan.

Keyinchalik Cho'li Iroq kuyining qaytadan jonlanishida, ommalashishida ustoz Turg'un Alimatovning satodagi, Abduhoshim Ismoilovning g'ijjakdagi, Abdulahad Abdurashidovning naydagi go'zal va betakror ijrolari katta hissa qo'shgan.

Bebaho merosimizning mana shunday tarixiy manzaralari, bosib o'tgan yo'llari ko'z oldimizda gavdalanar ekan, unga bo'lgan mehrimiz o'n karra, yuz karra oshsa, ne ajab. Modomiki shunday asarlar bor ekan, san'at o'lmaydi, shunday sehrlil ohanglar bor ekan qalblar o'lmaydi. Yillar sandig'ida omon saqlangan betakror merosimiz borligiga shukr, boyligimizga shukr!..

Nozima HABIBULLAYEVA,
O'zDK talabasi

internet orqali kuzatib turish imkoniga ega bo'ldi. Avvaliga o'qishga kirganlar qatorida edim, bir kun o'tib, "yiqildim"... Imtihon javoblari rasman e'lon qilindi. Bunday qaragam, yana talabaman-da! Hullas, o'ta hayajonli bo'ldi. Birinchi navbatda dadamni tabrikladim: o'qishga kirishimni eng ko'p kutgan kishi aynan ular edida! Butun oila xursand, do'stlarning tabrigini aytmayisizmi! Bu yog'iga faqat o'qish, o'qish va yana o'qish!

Shahriyor IBRAGIMOV,
"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish" yo'nalishi talabasi

DRAMATURG BO'LAMAN

Bolaligimda onam teatrga ko'p olib borardilar. Asarlarning mazmunini to'la tushunmasam-da, voqeani va aktyorlar mahoratini katta qiziqish bilan kuzatardim. Bora-bora o'zim teatrga tez-tez tushadigan bo'ldim. Maktabda adabiyotga qattiq qiziqib qoldim, ayniqsa, dramatik asarlarga havasim kuchaydi. Shunda o'z oldimga eng zo'r dramaturg bo'lish maqsadini qo'ydim. Yaxshi niyatimning dastlabki mujdalarini "Siz O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining dramaturgiya yo'nalishiga imtiyozli qabul qilindingiz" degan xushxabarda ko'rdim! Talaba bo'ldim! Ishonch bilan ayta olamanki, imtihonlar haqqoniy va shaffof bo'lib o'tdi. Har kim o'z ko'nikmasi va bilimiga tayangan holda tegishli natijalarga erishdi. Nasib etsa, mazkur oliygohning menga bergan bilimlari ko'magida yurtimiz dramaturgiyasini yanada yuqori bosqichlarga ko'tarmoqqa munosib hissa qo'shaman!

Mirzohid ABDULLAYEV,
"Sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi", ta'lim yo'nalishi talabasi

#Alisher Navoiy haqida 7 ta qiziqarli ma'lumot

Alisher Navoiy o'z zamonasining buyuk shaxsi, bugungi kunning esa beqiyos siymosi sanaladi.

1. Navoiy ikki taxallus ostida ijod qilgan. U Navoiy taxallusi ostida turkiy tilda ijod qilgan bo'lsa, forsiy tildagi ijodi Foni taxallusi bilan tanilgan.

2. Alisher Navoiy ijodkor ziyolilar oilasida tug'ilgan. Uning bobosi Abu Said shoir bo'lgan. Ikkinchi bobosi Muhammad Ali esa musiqachi va xattot sifatida tanilgan.

3. Alisher Navoiy turkiy tilni forsiy tili bilan birga ijodga olib kirgan. Unga qadar hech kim turkiy tilda ijod qilmagan.

4. Buyuk Sulaymon Navoiy ijodini yuqori baholagan va o'z kutubxonasida uning qo'lyozmalarini va asarlarini saqlagan.

5. 2009-yilda Merkuriydagi krater Alisher Navoiy sharafiga nomlangan.

6. Dunyoda Alisher Navoiyga qo'yilgan bir nechta yodgorlik mavjud: Moskva, Navoiy, O'sh, Toshkent, Samarqand, Boku, Tokio, Shanxay. Vashingtonda ham Navoiyga yodgorlik o'rnatish rejalashtirilgan.


7. Alisher Navoiy Naqshbandiyning so'filylik tariqatida bo'lgan. Uning so'filylik falsafiy-estetik qarashlari «Lison ut-tayr» asarida aks etgan.

Leonardo da Vinchi



- ▶ Ilk avtomobil dizayni buyuk Leonardoga tegishli;
 - ▶ Usmoniylar imperiyasi sultoni Boyazid II uchun buyuk rassom 240 metrli ko'prik ishlab chiqqan;
 - ▶ Leo rassomlikdan tashqari gidromexanika, fizikaviy geografiya, matematika, kimyo, ilmi nujum va botanika bilan ham shug'ullangan. U osmon nega ko'kligini ham tushuntirib o'tgan;
 - ▶ Eng qizig'i, u ikkala qo'lida ham bir xil surat sola olar edi.
- P.S. Notarius Pyeroning oilasida tug'ilgan Leonardo yurist bo'lishi mumkin edi. Yaxshiyamki, u ijodni tanlagan.

Eng og'ir, eng qimmat va eng katta kitoblar



- ▶ Dunyodagi eng og'ir kitob Londonning Britaniya muzeyida saqlanadigan geografik atlas hisoblanadi. Kitobning bo'yi bir metrdan ortiq va og'irligi 320 kilogrammdir.
- ▶ Dunyodagi eng katta kitob Amsterdam muzeylaridan birida saqlanadi. Bu kitob "Dengiz qoidalari to'plami" deb nomlanadi. Kitobning eni bir metr, qalinligi yarim metr, uzunasiga esa o'rta bo'lyi kishidan ham balanddir.
- ▶ Eng qimmat kitob fransuz Jozef Fore tomonidan nashr qilingan noyob "Apokalipsis" kitobi hisoblanadi. 100 million eski frank miqdorida baholangan ushbu kitob Parijning zamonaviy san'at muzeyida saqlanadi. Vazni 120 kilogramm. Amerika muzeylaridan biri Iogann Gutenberg uskunasi nashr qilingan Injil uchun eng yuqori baho, 200 ming AQSH dollari to'lagan.

Jyul Vern, Volter, Onore de Balzak va Artur Konan Doyl




• Yozuvchi Onore de Balzakning g'alati odatlari haqida u hayotlik chog'idayoq ko'p gaplar yurgan. Masalan, har safar yangi asar yozishdan oldin u bir-ikki oy muddatga o'z xonasida qamalib olar ekan. Yozuvchi pardalarni yorug'lik kirmaydigan darajada mahkam yopib olar va uy xalatiga burkanib olib, sham yorug'ida ishlagan. Balzak kuniga 18 soat ishlar va bu vaqt davomida unga kun va tunning farqini bilmaslik muhim edi.




• Fantast yozuvchi Jyul Vernning 20 ming asar haqidagi ma'lumotni o'z ichiga oluvchi shaxsiy kartotekasi bo'lgan. Yozuvchi kunning katta qismini ilmiy adabiyot bilan tanishib chiqishga sarflar edi.



• Ko'pchilik o'ylaganidek, izquvar (detektiv) Sherlok Xolms timsoli mashhur ingliz yozuvchisi Artur Konan Doylning fantastiyasi mahsuli emas. Aslida Sherlok Xolmsning prototipi 1910-yilda vafot etgan London izquvari Filipp Big hisoblanadi. U shaharning eng iqtidorli eksperti bo'lib, hayotining oxirgi 25 yilida Londonning barcha eng yirik jinoyatlarini ochib bergan.



• Volter bir vaqtning o'zida bir necha asarni yozish qobiliyatiga ega bo'lgan. Uning tugallanmagan asarlari odatda stol yoki pyupitr (notalar yoki kitoblarni ochib qo'yishga mo'ljallangan qiya ramka) ustiga yoyib qo'yilgan bo'lardi. O'zining ish stoliga yaqinlashar ekan, Volter nima yozishini bilmas edi, "Tragediyami, romanmi yoki poema" u ayni paytdagi kayfiyatiga qarab, ma'lum qo'lyozmani olar va ishini davom ettirar edi.



TELEVIDENIYA

- Hozirgi odamlar, o'rtacha hisobda, umrlarining olti yilini televizor ko'rish, olti yilini ovqatlanish va uchdan bir qismini uxlash bilan o'tkazishadi;
- Odamning miyasi uxlagan vaqtda televizor ko'rish vaqtidan yaxshiroq ishlaydi;
- 1928-yilda O'zbekistonlik ixtirochilar Boris Pavlovich Grabovskiy va Ivan Fillipovich Belyanskiylar elektron-nur yordamida harakatdagi tasvirni bir joydan ikkinchi joyga uzatadigan va qabul qiladigan «radiotelefo»ni kashf etganlar. Demak, sayyoramizda insoniyat yaratgan mo'jiza — televideniya O'zbekiston poytaxti –Toshkentda yaratilgan.

@CreativeUzbek saytidan olindi

Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Bosh muharrir:

Nafisa RAIMQULOVA

Tahrir hay'ati:

Go'zal XOLIQULOVA
Hamdam ISMOILOV
Antonino KOSHELEVA
Rashid USNATOV
Mas'ul kotib:
Alimurod TOJIYEV

Tahririyat manzili: 100025 Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och mavzesi, 127 A uy.

Telefon: (0-371) 230-28-13.
www.dsmi.uz; nashriyot@dsmi.uz

Gazeta har oying oxirgi haftasida «NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.
Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash'al mahallasi, Markaz-1.

Sahifalovchi:
Shahriyor IBRAGIMOV

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi.
O'lchami – A3, hajmi 2 bosma taboq.
Nusxasi – 700 dona. Narxi kelishilgan narxda.
Chop etishga 30.08.2019 yilda topshirildi.